



BUXORO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**BUXORO VILOYATIDA  
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI  
FAOLIYATI  
2023- yilda**



**Madaniyat bu** - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig‘indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san’at, me’morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san’at, fan va manaviy tizimlarni o‘z ichiga oladi.

**Madaniyat** - bu jamiyat, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatlari tarixiy rivojlanishining ma’lum darajasi. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma’naviy ne’matlarda namoyon bo‘ladi.

**San’at ijtimoiy ong** va inson faoliyatining o‘ziga xos shaklidir. San’at qadimiy tarixga ega bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq holda paydo bo‘la boshlagan.

San’at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o‘z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a’zolarini ma’lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsning turli maqsadlari, his-tuyg‘ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san’at go‘zallik qonuniyatlari asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g‘oyasiga aylangan.

**Teatr san’ati** azaldan insoniyatning ma’naviy hayotida o‘z o‘rnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo‘lib, shundan keyingina jamoaviy san’at turiga aylangan. Spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo‘lib, bugungi kunda boshqacha qilib aytganda, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlarining mahsulidir. Demak, sahna san’atkorning muttasil ijodkorligini ko‘rsatadi, aktyor zamonaviy san’atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog‘liq bo‘lgan nimadir qo‘sadi yoki olib tashlaydi.

## **BUXORO VILOYATIDAGI MUZEYLAR**

Viloyatimizda 2023- yilda jami muzeylar soni **19** tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni **18** taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, **390,3** ming kishidan iborat bo‘lib, ulardan o‘quvchi va talabalar ulushi **21,1 %** ni tashkil etgan. Muzeylar Buxoro shahrida joylashgan.


Bugungi kunda viloyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlar mavjud bo‘lib, **2023-** yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni **86904** tani tashkil etgan. Muzey eksponatlarining **561** tasi rassomlik, **484** tasi grafika, **94** tasi haykaltaroshlik, **2835** tasi amaliy san’at, **33542** tasi numizmatika, **13928** tasi arxeologiya buyumlari, **2716** tasi suratlar, **18067** tasi hujjatlar, **9324** tasi maishiy va etnografik buyumlar va **5353** tasi boshqa eksponatlardan iborat.



**Muzeylar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari,**  
*2023- yil uchun, birlik*



**Muzeylardagi asosiy fond eksponatlari soni,**  
*2023- yil uchun, birlik*



## BUXORO VILOYATIDAGI TEATRLAR

2023-yilda viloyatimizda jami teatrlar soni **2** tani tashkil etadi. Teatrлarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) soni **510** tani tashkil etdi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni **120,1** ming nafarni tashkil etgan.

### Teatrlarning janrlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlik




## BUXORO VILOYATIDA KONSERT TASHKILOTLARI

Viloyatimizda 2023-yilda faoliyat ko‘rsatayotgan konsert tashkiloti soni **1** ta bo‘lib, konsert tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2023-yilda **388** tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni jami **46,6** ming nafarni tashkil etdi.

## BUXORO VILOYATIDA MADANIYAT VA DAM OLİSH ISTIROHAT BOĞ'LARI

2023- yilda mamlakatimizda 7 ta madaniyat va istirohat bog‘lari mavjud bo‘lib, umumiy maydoni 56,7 gettarni tashkil etadi. Dam olish obyektlari soni 19 tani tashkil etadi. Attraksionlar soni 129 tadan iborat. Yil davomida 93,0 mingta qatnov bulgan, shu jumladan bolalar tomonidan qatnov 53,3 ming kishini tashkil etdi.

### Madaniyat va dam olish istirohat bog‘lari 2023- yil uchun, birlik



7

madaniyat va dam  
olish istirohat bog‘lari

attraksionlar

129

istirohat bog‘lari umumiy  
maydoni, ga

56,7

qatnovlar, ming kishi

93,0

## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Madaniyat** — inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

**Madaniy meros** bu — xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyatning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

**Madaniy meros obyektlari** — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

**Moddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansamblar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

**Nomoddiy madaniy meros obyektlari** — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

**Diqqatga sazovor joylar** — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



## Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul: Buxoro viloyati statistikasi boshqarmasi



Buxoro viloyati statistika boshqarmasi



Manzil: Buxoro shahri S.Ayniy  
kuchasi 3-uy

tel.: +99865 223-81-65



e-mail:cots1706@umail.uz



[www.buxstat.uz](http://www.buxstat.uz)



[facebook.com/uzstataxborot](https://facebook.com/uzstataxborot)

